

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

F.Tashpulatov	
Basketbol texnikasini o'rgatish metodikasi	98
D.Rafikova	
Oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonidagi pedagogik amaliyotning ahamiyati	103
A.Muxametov	
Qo'l to'pi o'yini darvazobonini tayyorlashning uslubiy yo'llari	107
A.Kdirbayeva, Y.Ryabova, A.Abdikadirov	
Uzluksiz pedagogik amaliyot – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligining eng muhim komponenti	113
G'.Shermatov	
Yosh bolalarga kurash sport turlarini o'rgatish.....	121
N.Djalilova	
Talabalar kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish videomateriallari	130
F.Karimov	
Keksa yoshdagi 60-64 yoshli erkaklar uchun jismoniy holatini inobatga olgan holda sog'lomlashtiruvchi mashqlar jamlanmasi uslubiy tavsialari.....	135
Y.G'afforov	
Ta'lim sifati va o'qitish metodlarini tanlashning asosiy jihatlari.....	145
A.Tadjibaeva	
Ta'lim jarayonidagi inklyuzivlik teng ta'lim olishni ta'minlash vositasi sifatida.....	150
M.Tairova	
Aholini sog'lomlashtirish uchun jismoniy mashqlarning tejamkor texnologiyalari	157
M.Baybaeva, I.Imomov	
Talabalarning nizoli xulq atvorini pedagogik tashxis etishning sinergetik-tuzilmali modeli	160
R.Turgunbayev, K.Kodirov, A.Nishonboyev	
O'quvchilarda umummatematik faoliyat usullarini shakllantirish modeli	164
S.Uraimov	
Umumta'lim maktabi yuqori sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini o'rganish va tadqiqot qilish.....	170
G'.Ernazarov	
Oliy ta'lim talabalarining jismoniy sifatlarini aylanma mashqlar asosida rivojlantirish usullari.....	174
S.Uraimov	
Umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya tizimini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy xususiyatlari.....	179
R.Nazimov	
O'quv mashg'ulotlarini zamonaviy usullar asosida tashkil etish.....	182
S.Isroilova	
Rus tilini o'qitish va muloqot qilish jarayonida talabalarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish	187
M.Tojiboyev, D.Yunusova, M.Xursantova	
Mustaqil darslarning asosiy shakllari va tashkil etilishi	191
Q.Iqboljon	
Sharq allomalari musiqiy merosida bo'lajak musiqa o'qituvchilari axloqiy – estetik qadriyatlar tizimining gnesiologik tahlili.....	195
O.Fozilova	
Bolalarni maktabga tayyorlashda innovatsion yondashuv usullari	201
A.Zaripova	
Oliy ta'lim muassasalarida noan'anaviy ta'lim berish metodlarini amaliyotga joriy etish orqali chet tillarni o'qitish sifatini yaxshilash.....	205
B.Sharipova	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarini o'quvchilarda bioetik madaniyatini rivojlantirishining nazariy-metodologik asoslari.....	209
N.Karimov	
O'quv dala amaliyotida poxodlarni tashkil etishda gigiyenik qoidalarga amal qilish tartibi.....	212

BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHDA INNOVATSION YONDASHUV USULLARI

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ ПОДГОТОВКИ ДЕТЕЙ В ШКОЛЫ

INNOVATIVE METHODS OF CHILDREN PREPARATION TO SCHOOL

Fozilova Odina Nabiyeвна¹¹Fozilova Odina Nabiyeвна

– Farg‘ona davlat universiteti, maktabgacha ta‘lim kafedrası katta o‘qituvchisi, f.f.f.d (FhD)

Annotatsiya

Maqolada bolalarni maktabga tayyorlashda maktabgacha ta‘lim tashkiloti hamda oila bilan hamkorlikning innovatsion yondashuvlari keng yoritib berilgan. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarni boshlang‘ich ta‘limga majburiy bir yillik tayyorlashning jihatlari va o‘ziga xosliklar keng tahlil etilgan.

Аннотация

В статье широко освещены инновационные подходы организации дошкольного образования и сотрудничества с семьей в подготовке детей к школе. Широко анализируются аспекты и особенности обязательной годичной подготовки детей к начальному образованию в организации дошкольного образования.

Abstract

In the article, the innovative approaches of the preschool education organization and cooperation with the family in preparing children for school are widely covered. Aspects and peculiarities of mandatory one-year preparation of children for primary education in the organization of preschool education are widely analyzed.

Kalit so‘zlar: maktabgacha ta‘lim, motivatsiya, kognitiv qobiliyatlar, hissiy-irodaviy soha.

Ключевые слова: мотивация дошкольного образования, познавательные факторы, эмоционально-волевая сфера.

Key words: motivation of preschool education, cognitive factors, emotional and volitional sphere.

KIRISH

O‘zbekistonda milliy ta‘lim tizimini isloh qilish barcha ta‘lim turlari bo‘yicha o‘z oldiga asosiy yangi vazifalarni qo‘ydi. Bu esa yangi ta‘lim konsepsiyalari joriy etilib, yosh avlodni tarbiyalashning zamonaviy ta‘lim, integratsiya va innovatsion yondashuv asosida maktab ta‘limiga sifatli tayyorlashni nazarda tutadi. Ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasida yaratilgan uzluksiz ta‘lim tizimi jahon talablariga javob berib, zamonaviy jamiyat ehtiyojlarini inobatga oladi. Shu bilan bir qatorda hal etilishi zarur bo‘lgan muammolarni ham mavjud.

2022—2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” da “Maktabgacha ta‘lim tizimida ta‘lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish” 39-maqsadida ifodalangan [1,464].

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga sifatli tayyorlash o‘qitish, yozish va hisoblash malakalari eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, ularni har tomonlama barkamol rivojlanishini ta‘minlashga imkon beradi. Bu albatta oila hamda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martda PQ-132-muvofiq “Bolalarni boshlang‘ich ta‘limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori 6-7 yoshli bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni ustuvor vazifa qilib qo‘ygan [2, LEX.UZ].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma‘lumki, bo‘lajak maktab o‘quvchilarida zarur kompetensiyalarni rivojlantirish o‘qituvchi (tarbiyachi)lar va psixologlar tomonidan hal qilinib, maktabda o‘qishga tayyorgarlik masalalari ko‘p yillar davomida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan. O.Musurmonova, F.Vahobova, R.Sunnatovalar, xorijiy tadqiqotchilar L.I. Bojovich, L.A.Venger, L.S.Vigotskiy, A.V.Zaporojets, V.S.Muxina, E.O. Smirnov va boshqalarning tadqiqotlari maktabgacha yoshdagi bolani maktabga tayyorgarlikning quyidagi tarkibiy qismlarini aniqlashga imkon berdi: jismoniy, aqliy, motivatsion, hissiy-irodaviy, muloqotga tayyorlik (N.I. Gutkina tasnifi) [3, 25].

Kulagina I.Yu tadqiqotlarida psixologik va pedagogik tayyorgarlikning ikki jihati ajratiladi: shaxsiy (motivatsion) va intellektual tayyorgarlik [4, 126]. Maktabgacha ta‘lim tashkilotida bolalarni boshlang‘ich ta‘limga majburiy bir yillik tayyorlashning o‘ziga xosliklari bolalarni maktabga

tayyorgarligi motivatsion va intellektual jihatlari zaruriy darajada bo'lishi, bu esa obyektiv baholash tarbiyachilar va ota-onalarning faol ishtirokisiz amalga oshirib bo'lmaydi. Buning uchun maktabgacha katta yoshdagi bolalar xususiyatlari haqida ma'lumotlari shakllanib, amalga oshirish usullari haqida bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lishlari kerak. Bolalarni maktabga tayyorgarlik va maktab ta'limining boshlanishi yuzasidan uchrashi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar mavjud. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ularni maktabga tayyorlash bo'yicha tarbiyachi ota-onalarga maslahat beradi. Barcha hollarda maktabgacha ta'lim tashkilotda ota-onalar bilan ishlash rejasi (chora tadbiri)ni belgilashi, o'zgaruvchan sharoitlarni hisobga olgan holda bolani maktab ta'limiga ijtimoiy moslashi uchun oila bilan hamkorlik mazmuni, shakllari va usullarini takomillashtirishi kerak. Shuni aytib o'tish joizki, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotida intellektual rivojlanish bo'yicha kuchaytirilgan treninglar, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga qo'yiladigan davlat talablarida belgilangan indikatorlar doirasida bola yozish, hisoblash, shuningdek, bilimga ega bo'lishga o'rgatiladi. Bundan tashqari, bolaning maktabga tayyorgarligini tahlil qilish metodikasi birinchi navbatda uning kognitiv jihatini o'rganishga qaratilgan. Shu sababli, bolalarni maktabga hissiy va irodali tayyorlashning muhim omili sifatida maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila bilan hamkorlikdagi o'zaro munosabatlar muammosi bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalarni maktabga tayyorlash maktabga kirishdan ancha oldin boshlanishi va guruh xonasini maktabga borishga bo'lgan bolani qiziqishini orttiruvchi rasmlar, xona devorlarida aks etishi kerak. Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashdagi dastur "Ilm yo'li" variativ dasturga nazarda tutilgan o'quv reja asosida faoliyat amalga oshirib boriladi. Bu faoliyatlari: nutq o'stirish, savodga tayyorlash va matematik tasavvurlarni shakllantirish asosida hamda o'yinlar, rasm chizish, qurish -yasash va hokazolar asosida amalga oshiriladi. Bola qanday faoliyat bilan shug'ullansa, har doim kognitiv element mavjud bo'lib, unda u yangi narsalarni o'rganishga harakat qilib, o'z-o'zidan biror narsa qurishga yoki yasashga harakat qiladi. Ammo bu ta'lim faoliyatiga tayyorlikni shakllantirishda asosiy jihat emas. Shuni ta'kidlash kerakki, birinchi sinfda va maktabgacha ta'lim tashkilotining tayyorlov guruhlarida ta'lim mazmuni ko'p jihatdan mos keladi. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim tashkilotlari bitiruvchi (6-7 yosh bola)larining maktab sharoitlariga moslashuv kuzatuvlari shuni ko'rsatadiki, maktabda yilning birinchi yarmi eng qiyin davr hisoblanadi. Shuni aytib o'tishimiz muhimki, ommaviy maktabda bilimlarni o'zlashtirishning boshqa mexanizmlari yotadi. Kognitiv faollikning yuqori darajasi hali o'rganish uchun yetarli motivatsiyani kafolatlamaydi. Bolaning kognitiv qiziqishlari maktab ta'limining mazmuni va shartlari bilan bog'liq bo'lishi kerak. Ya'ni bolani tayyorgarligi psixologik nuqtayi nazardan, bolaning hissiy-irodaviy sohasi yangi muhitga moslashishi (ijtimoiy moslashuv) birinchi kunlardan boshlab shaxslararo munosabatlar bolaning bilim faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini tan olish kerak. Bolalarning ijtimoiy moslashuvi muammolariga olimlar I.V.Dubrovina, N.V.Belyakova quyidagilarni o'z ichiga oladi: 6-7 yoshli maktab o'quvchilari uchun — intellektual rivojlanishga tahdid: stress, hissiy yetuklik; 11-12 yoshdagi maktab o'quvchilari uchun: hissiy-irodaviy va xulq-atvor buzilishlarining og'irligi, 15-16 yoshdagi maktab o'quvchilari uchun: shaxslararo munosabatlardagi tashvish[4, 148] "Birinchi qo'ng'iroq" taassurotlari bola maktabda har kuni bayram emasligini, darsda 45 daqiqa o'tirish, o'qish, tayyorgarlik ko'rish kerakligini tushuna boshlaganida juda tez o'tadi.

Bundan tashqari, barcha kattalar(ota-ona, aka-opa) unga u allaqachon ulg'aygani, maktabga borganini aytishi va maktabda bola o'zini noqulay holda sezishi, uning ustida juda ko'p sinflar borligini tushunishi unda stress va inijqliklar boshlanishiga sabab bo'ladi.

Buning uchun faqat tarbiyachilar va ota-onalarning birgalikdagi hamkorligi bolaning har tomonlama rivojlanishini va uni maktabga to'g'ri tayyorlashni ta'minlaydi. Oila bolaning rivojlanishi uchun birinchi va eng muhim muhitdir.

Tarbiyachi ota-onani ham farzandini maktab ta'limiga ijtimoiy moslashuviga ko'mak berishi zarur. Bola maktabda fanlarni o'zlashtirishida ona unga ko'maklashadi. Bu jarayonga tayyor bo'lish uchun bola bilan birga dars tayyorlashi zarur. Tarbiyachi ona va

PEDAGOGIKA

bolani birgalikda topshiriqlarni bajarishda ular bilan hamkorlikni amalga oshiradi. Masalan, o'z tajribamiz misolida aytishimiz joizki, onani farzandiga kitob o'qib berishi. Bu jarayonga qiziqtirish uchun tarbiyachi bolalar bilan birga turli mavzudagi kitoblar tayyorlaydi. Masalan, mevalarni rasmlari ifodalangan bo'lish yoki uy hayvonlari tasviri aks etgan kitobcha. Tarbiyachi bolalar bilan tayyorlagan kitobni ularning ulariga olib ketishlarini so'raydi. Hamda onasi bilan birga shunday kitob tayyorlab kelishlarini aytadi. Bunday faoliyat orqali bolada kitobga bo'lgan qiziqishlari hamda onalari bilan birga dars tayyorlash bo'yicha ko'nikma shakllanib boradi.

Tarbiyachi ota-onalar bilan hamkorlikning innovatsion va samarali faoliyatlarni guruhda seminarlar, davra suhbatlar, bahs-munozaralar, amaliy mashg'ulotlar, treninglar va rolli o'yinlardir orqali farzandlarini maktab ta'limiga birgalikda tayyorlashning samarali usullari ularda farzandini bolalar jamoasiga, o'qituvchi va o'quv faoliyatiga amaliy yordam beradi.

Innovatsion shakllar ota-onalarning faol vaziyatni, tarbiyachilar bilan hamkorlik jarayonida tashabbus va oilaviy muhitda harakat va qo'llash uchun motivatsiyani, ya'ni ular olgan bilimlar individual xususiyatlariga (ota-ona) muvofiq talqin qilinishi kerak. Innovatsion shakllar muammoli bo'lib, nazariy tanishishni, muayyan vaziyatlardan amaliy xulosalarga kelishni o'z ichiga oladi (masalan, ota-onalarni aks ettiruvchi o'yin). Shu bilan birga, barcha ota-onalar bolalar bilan ishlash uchun pedagogik va psixologik ko'nikmalarga ega emasligini hisobga olish kerak. Muammoli vaziyatlarni o'ylab topib, o'yin usuli orqali tarbiyachi ota-onalarga haqiqatan ham o'zlarini tashqaridan qarashlariga, bolaning maktabga kirishdagi barcha qiyinchiliklarni subyektiv va obyektiv baholashga yordam beradi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi xuddi shu muammoni bolalar bilan birgalikda ularni maktab ta'limiga sifatli tayyor bo'lishi uchun samarali amalga oshirishi zarur. Bunday yondashuv maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil etilib, sinf xonasi ularda maktab haqidagi tasavvurlarni hosil bo'lishiga yordam beradi. Ota-onalar o'z farzandlarining bilim va ko'nikmalarini kuzatish imkoniyatiga ega. Keyin ular o'zlarini qiziqtirgan muammolarni maxsus tashkil etilgan tadbirlarda (ochiq eshiklar kuni) muhokama qiladilar. Guruh seminarlari, davra suhbatlari, ota-onalarning bolasini maktabga kirishiga tayyorligini shakllantirish bo'yicha bahslar. Shu asosda vaziyatning ikki tomonlamaligini vizual tarzda ko'rib chiqish, bolaning va kattalarning vaziyatini aniqlash, ota-onalarning ehtiyojlari va zaruriy vakolatlarini shakllantirishga to'g'ri e'tibor qaratish mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, bola psixikasidagi keyingi rivojlanish uchun muhim bo'lgan bu o'zgarishlar o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi, balki maqsadli pedagogik ta'sirning natijasidir. "Tartibsiz" deb ataluvchi bolalar, agar oilada zarur shart-sharoit yaratilmagan bo'lsa, o'z rivojlanishida maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnaydigan tengdoshlaridan o'zlashtirishda ortda qolayotgani hayotiy misollarda ko'rishimiz mumkin.

Shunday qilib, o'qish motivlarini va maktabga ijobiy munosabatni shakllantirish maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagogik jamoasi va oilada bolalarni maktabga tayyorlashdagi eng muhim vazifalaridan biridir.

Bolalarni maktabga tayyorlashda tarbiyachining motivatsiyasini hisobga olish kerak. Maktabgacha ta'lim tashkilot tarbiyachisining bolalarda o'qishga bo'lgan motivlarini va maktabga ijobiy munosabatini shakllantirishdagi quyidagi asosiy vazifani hal qilishga qaratilgan:

- bolalarda maktab va o'qitish haqida to'g'ri tasavvurlarni shakllantirish;
- maktabga nisbatan ijobiy hissiy munosabatni shakllantirish;
- o'quv tajribasini shakllantirish [6. 144].

Ushbu muammolarni hal qilish uchun men turli xil ish shakllari va usullaridan foydalanaman: maktabga ekskursiya, maktab haqida suhbatlar, ertaklar o'qish va maktab she'rlarini o'rganish, maktab hayotini aks ettiruvchi rasmlarga qarash va ular haqida suhbatlashish, maktabni chizish va maktab o'ynash.

Maktab haqidagi hikoyalar va she'rlar bolalarga maktab hayotining turli qirralarini ko'rsatuvchi tarzda tanlangan:

- bolalarning maktabga borish quvonchi;
- maktab bilimlarining ahamiyati va ahamiyati;
- maktab ta'limining mazmuni;
- maktabdagi do'stlik va maktab o'rtoqlariga yordam berish zarurati;
- sinfda va maktabda o'zini tutish qoidalari. Shu bilan birga, bolalarga "yaxshi o'quvchi" va "yomon o'quvchi" qiyofasini ko'rsatish, bolalar bilan to'g'ri va noto'g'ri (tashkilot nuqtayi nazaridan) naqshlarni taqqoslash asosida suhbat qurish muhimdir. maktabdagi xulq-atvori. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar yoshi qiziqish bilan idrok qiladi va hazil mazmuniga ega matnlarni yaxshiroq eslab qoladi.

- Maktabgacha yoshdagi bolada o'rganish motivlarini va haqiqiy tarbiyaviy motivlarni shakllantirishda oila hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yangi bilimlarga qiziqish, qiziqarli ma'lumotlarni (kitoblarda, jurnallarda, ma'lumotnomalarda) izlashning asosiy ko'nikmalari, maktabda o'qitishning ijtimoiy ahamiyatini anglash, o'zining "men istayman" so'zini "kerak" so'ziga bo'ysundirish qobiliyati istak, ishlash va boshlangan ishini oxirigacha yetkazish, o'z ishining natijalarini namuna bilan solishtirish va xatolarini ko'rish qobiliyati, muvaffaqiyatga intilish va o'zini munosib baholash kabilar maktabda o'qitishning motivatsion asosidir va shakllanadi asosan oilaviy tarbiya sharoitida bo'lishi muhim. Agar oilaviy ta'lim noto'g'ri qurilgan bo'lsa (yoki umuman yo'q bo'lsa), faqat maktabgacha ta'lim tashkilotining sa'y-harakatlari bilan ijobiy natijalarga erishib bo'lmaydi.

- Tarbiyachining ko'rsatmalarini tinglash va ularga rioya qilish qobiliyati har qanday boshlang'ich maktab dasturida muvaffaqiyatli o'rganishning asosiy shartlaridan biridir. Ushbu ko'nikma qanchalik rivojlanganligini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyatlar vaqtida bolani kuzatish orqali aniqlashingiz mumkin. Shu bilan birga, biz maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachining xatti-harakatlarining quyidagi xususiyatlariga e'tibor qaratamiz: — kattalarni diqqat bilan tinglaydimi;

- topshiriqni oxirigacha tinglaydimi, gapini to'xtatmaydimi va tinglamasdan topshiriqni bajarishga boshlamaydimi;

- kattalar ko'rsatmalarini iloji boricha aniq bajarishga harakat qiladi;
- ijro jarayonida biror narsani tushunmagan yoki unutgan bo'lsa, savollar beradi;
- u kattalarni topshirig'ini tan oladimi va u bilan munosabatda bo'lishga moyilmi

Shunday qilib, zamonaviy ota-onalarning vazifasi bolaning har tomonlama rivojlanishni ta'minlashdan iborat bo'lib, bu tizimli yondashuvni talab qiladi. Umumiy yechimlardan biri maktabgacha ta'lim tashkilotlari, zamonaviy bolalar ta'lim va rivojlanish markazlari bo'lib, ular ta'lim va tarbiya jarayonlarini osonlashtirish va jadallashtirish, ularni yanada rang-barang, qiziqarli va samarali qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. – 464 bet.
2. "Bolalarni boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorlash tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining Qarori. LEX.UZ.
3. Гуткина Н.И. Психологическая готовность к школе.- 4-е издание., перераб.С.25.
4. Кулагина И.Ю. Возрастная психология.-М. 1991.С. 126.
5. Дубровина И.В. Особенности психического развития детей // Возрастные особенности психического развития детей. -М – 1992г.С. 148.
6. Куликова Т. Семейная педагогика и домашнее воспитание. Учеб пособие. - М.: Академия, 1999.С.144.
7. Юлдашева Д.М. [Использование зоонимов в колыбельной песне-«алла», как аспект этнолингвистики.](#) cyberleninka.ru
8. ДМ Юлдашева, Д Асқарова, М Зоҳидова. [Ўзбек болалар нутқида доир матнларда лақуна.](#) Academic research in educational sciences 2
9. D Yuldasheva. [Anthropocentric approach to children's speech study.](#) Конференции.
10. Ю.Д Махамдалиевна. [Использование зоонимов в колыбельной песне-«алла», как аспект этнолингвистики.](#) Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 12 (Ulrich's ...
11. YD Maxamadaliyeva, M Matmusaeva. [On Lingvofolcloristic Units.](#) International Journal of Culture and Modernity 11, 169-171
7. YD Maxamadaliyeva, MX Madaminovna. [Gnoseological Substantiation of Cognitive Development Children.](#) International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 2 (4), 7-11
8. YD Maxamadaliyeva. [USE OF PRESIDENTIAL NAMES IN UZBEK CHILDREN'S TEXTS.](#) Gospodarka i Innowacje. 22, 68-70
9. D Yuldasheva, S Umarova . [МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗИМИДА О 'ЙИЛЛАР ТЕХНОЛОГИЯСИ.](#) Scientific progress 3 (2), 746-751